ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-4

Davlat fuqarolik xizmatida “Karera modeli”ni joriy etishning iqtisodiy imkoniyatlari va istiqbollari

Yaxshibaev Baxram Abduvaxobovich,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi
Jizzax viloyati filiali rahbari o‘rinbosari

Annotatsiya. Mazkur maqolada davlat fuqarolik xizmatida “Karera modeli”ni joriy etishning iqtisodiy imkoniyatlari, xizmat ko‘rsatish sohasi istiqbollari, davlat fuqarolik xizmatchilarining ma’naviy-axloqiy fazilatlarini baholash metodikasining joriy etilishida va davlat xizmatchilari o‘rtasida “o‘zaro munosabatlarda hurmat”, “jamoaviy muhitga intilish” va “islohotlarga daxldorlik” hissini ortishini ta’minlash, davlat fuqarolik xizmatchilarining kasbiy kompetensiyalarini uzluksiz ravishda rivojlantirishning samarali mexanizmlarini joriy etish va ushbu mexanizmlarini qo‘llashning natijadorligini baholab borish usullari va mexanizmlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Karera modeli, iqtisodiy imkoniyatlar, xizmat ko‘rsatish istiqbollari, davlat fuqarolik xizmati, meritokratiya, “Tranmplin”, “Zinopoya”, “Ilon izi”, “Ikkilanish” modellari, inson resurslari, karera kapitali, kareraviy rivojlanish.

Аннотация. В статье анализируются экономические возможности внедрения «модели карьеры» на государственной службе, перспективы сферы услуг, методы и механизмы реализации методики оценки духовно-нравственных качеств государственных служащих, обеспечивающие рост у государственных служащих чувства «уважения во взаимоотношениях», «стремления к коллективной среде» и «вовлеченности в реформы», внедрение действенных механизмов непрерывного развития профессиональных компетенций государственных служащих, а также оценка эффективности применения данных механизмов.

Ключевые слова: Модель карьеры, экономические возможности, перспективы службы, государственная гражданская служба, меритократия, модели «Ступенька», «Зинопояс», «Змеиная тропа», «Дуализм», человеческие ресурсы, карьерный капитал, развитие карьеры.

Abstract. This article analyzes the economic possibilities of introducing the "Career Model" in the civil service, the prospects for the service sector, the methods and mechanisms for assessing the spiritual and moral qualities of civil servants, ensuring an increase in the sense of "respect in mutual relations", "striving for a collective environment" and "involvement in reforms" among civil servants, introducing effective mechanisms for the continuous development of professional competencies of civil servants, and assessing the effectiveness of the application of these mechanisms.

Key words: Career model, economic opportunities, service prospects, public civil service, meritocracy, "Stepping Stone", "Zinopoyas", "Snake Trail", "Dualism" models, human resources, career capital, career development.

O‘zbekistonda kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar hamda davlat boshqaruvi jarayonida jahon standartlariga javob beradigan, “Yangi O‘zbekiston” kadrlarini tanlash, ularni tayyorlash va o‘qitish, meritokratiya tamoyillarini qo‘llagan holda iqtidorli va salohiyatli yoshlarni izlab topishga katta e’tibor berilmoqda. Ochiqlik va oshkoralik tamoyillari asosida yuqori malakali, bilimli, halol va sadoqatli kadrlarni davlat fuqarolik xizmatiga ochiq

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-4

tanlovlar orqali ishga qabul qilish, boshqaruv sohasida muvafaqqiyatlarga erishish va yuqori ish samaradorligini ta'minlashdan iboratdir.

O'zbekistonda islohotlarning hozirgi bosqichida davlat xizmatidagi kadrlar siyosatini avvalgidek oddiy "xodimlarni boshqarish"ning ayrim elementlarini emas, balki "inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish"ga yo'naltirilgan yangi sifat bosqichiga ko'tarish vazifasi turibdi. Inson resurslarini boshqarish va ularning intellektini oshirish "tashkilotning strategik maqsadlariga erishish uchun uning inson resurslariga bo'lgan ehtiyojini tahlil qilish va boshqarish jarayoni" deb ta'riflash mumkin.[1]

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3 oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5843-son Farmonida davlat organlari va tashkilotlarining malakali mutaxassislar bilan yetarli darajada ta'minlanmayotganligiga, kadrlar malakasining yuklatilgan vazifalar va zamonaviy ehtiyojlarga nomuvofiqligiga, qabul qilinayotgan qarorlar sifatining pastligiga olib kelayotgan bir qator tizimli muammolar va kamchiliklar saqlanib qolayotganligi qayd etilgan.

Shuningdek, davlat fuqarolik xizmatini yanada takomillashtirish va isloh qilishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida kadrlar malakasini muntazam oshirib borish, davlat fuqarolik xizmatchilarini toifalash va ularga malaka kareralari (darajalari) berish orqali xizmat karerasining lavozim pog'onalaridan bosqichma-bosqich o'tishni nazarda tutuvchi davlat fuqarolik xizmatining «karera modeli»ni joriy etish belgilandi.

So'nggi besh yil davomida me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida "meritokratiya" tamoyilini amalda joriy etishga erishilgan bo'lsada, unda raqamli texnologiyalar, yangi baholash va ma'lumotlarni tahlil qilish usullaridan foydalangan holda sohaga eng malakali kadrlarni jalb qilish, saralash va tanlash jarayonlarini optimallashtirishga kuchli ehtiyoj mavjud.

Davlat xizmatchilarining kasbiy kompetensiyalarini baholash va rivojlantirish tizimi asosida lavozim pog'onalarida o'sish imkoniyatlarini va sharoitlarini yaratish zarur.

Davlat fuqarolik xizmati uchun kadrlarni tarmoq va sohalar bo'yicha tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini uzluksiz oshirib borishga keng jalb etish maqsadida oliy ta'lim muassasalari, qayta tayyorlash va malaka oshirish markazlarini faoliyatini raqamlashtirish zarur.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasini 2023 yilda sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-300-sonli qaroriga muvofiq, Agentlik tomonidan davlat fuqarolik xizmatchilarining kasbiy kompetensiyalari va alohida xizmatlarini xolis va adolatli baholash, davlat fuqarolik xizmatchilarining malakasini tizimli ravishda oshirish va rag'batlantirishni ta'minlovchi Milliy "Karera modeli" elektron platformasini ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Milliy "Karera modeli"ni ishlab chiqishda qo'llanilgan metodikalarni yaxlit holda O'zbekiston sharoitida inson resurslarini boshqarish va rivojlantirishda endi qo'llanilmoqda. Davlat fuqarolik xizmatchilarining ma'naviy-axloqiy fazilatlarini baholash metodikasining joriy etilishi platformaga "milliylik" sifatini bergan bo'lsa, "360 daraja" usuli orqali baholash metodikasining joriy etilishi davlat xizmatchilari o'rtasida "o'zaro munosabatlarda hurmat", "jamoaviy muhitga intilish" va "islohotlarga daxldorlik" hissini ortishini ta'minlaydi, ma'lumotnoma (ob'ektivka)ni baholash metodikasini joriy etish esa, davlat xizmatchilarining mehnat faoliyati xronologiyasi "ko'zgusi"

[1] Luftim Cania, (2014), "The evolution of human resource management: past, present and future", The Macrotheme Review 3(9), 2014. pp 73-83.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-4

bo‘lib xizmat qiladi hamda o‘z oldiga jiddiy maqsadlarni qo‘ygan holda yangi marralarni egallashiga “turtki” bera oladi deb hisoblaymiz.

“Karera modeli” tushunchasi, mazmuni va mohiyati.

Prezidentimizning 2019 yil 3 oktabrdagi PF-5843-son Farmoniga muvofiq, davlat fuqarolik xizmatini yanada takomillashtirish va isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida sohada kadrlar malakasini muntazam oshirib borish, davlat fuqarolik xizmatchilarini toifalash va ularga malaka kareralari (darajalari) berish orqali xizmat karerasining lavozim pog‘onalaridan bosqichma-bosqich o‘tishni nazarda tutuvchi davlat fuqarolik xizmatining “karera modeli”ni joriy etish belgilab berilgan edi.

Dastlab, “Karera” va “Karera modeli” tushunchalarini izohlasak. “Karera” so‘zi lug‘aviy jihatdan inglizcha (“career”so‘zi)dan tarjima qilinganda “mansab”, “martaba” degan ma’nolarni anglatadi. Mazmunan esa, kar’era - bu shaxsning o‘rganish, mehnat va hayotning boshqa jabhalari orqali qiyosiy ma’nodagi “sayohat”idir. Ushbu atama turli sohalarda turli usullarda qo‘llaniladi.[2]

M.B.Artur, D.T.Xoll va B.S.Lourens “Karera nazariyasi bo‘yicha qo‘llanma” (“Handbook of career theory”) asarida quyidagi qisqa ta’rifni beradilar: “Karera - bu sub’ektning hayot davomidagi ish tajribasining ketma-ketligi”.[3] Shunga o‘xshash ta’riflarni ko‘plab adabiyotlarda topish mumkin, masalan: “Karera - bu ish tajribasi va ish hayotidagi boshqa faoliyat bilan bog‘liq qarashlar, munosabatlar va xatti-harakatlarning individual ongli ketma-ketligi”.

Boshqa bir nuqtai nazardan qaraganda karera - bu shaxsning kasbiy o‘sishi, uning ta’siri, kuchi, obro‘si, atrof-muhitdagi mavqei o‘sishi, uning ierarxiya, malaka zinapoyasi, ish haqi, obro‘-ye’tibor bosqichlari orqali ko‘tarilishida ifodalangan jarayondir. Demakki, karera va shunga mos ravishda karera harakatchanligi bir o‘lchovli - ko‘tarilish va/yoki kasbiy o‘sish nuqtai nazaridan tavsiflanadi.

Mehnat psixologiyasi oid qarashlarga ko‘ra**,** karera deganda insonning butun umri davomida turli xil ish turlari va shakllariga qo‘shilishi, ularda ishtirok etishi va ulardan chetlanishi jarayonlari majmuasi tushuniladi[4].

Karera modellari. Ilmiy izlanishlar tahlili hamda korxona va tashkilotlarning 700 nafar rahbar va mutaxassislarining karerasini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, mansab imkoniyatlarining xilma-xilligi to‘rtta asosiy modelning kombinatsiyasi orqali olinadi. Jumladan, “Tramplin”, “Zinapoya”, “Ilon izi”, “Ikkilanish” va boshqa shu kabi karera modellarni sanab o‘tish mumkin.[5]

«Tranmplin» karera modeli menejerlar va mutaxassislar orasida keng tarqalgan bo‘lib, xodimning hayot yo‘li uning salohiyati, bilimi, tajribasi va malakasini bosqichma-bosqich oshirish bilan karera zinapoyasiga uzoq ko‘tarilishdan iborat.

Shunga muvofiq, har bir xodim o‘zi egallab turgan lavozimini imkon qadar yuqori va ko‘proq maosh to‘lanuvchi lavozimlarga o‘zgartirishga intilishi tabiiy hol hisoblanadi. Muayyan bosqichda xodim u uchun eng yuqori lavozimni egallaydi va bu pozitsiyani uzoq vaqt davomida saqlab qolishga harakat qiladi. Karerasi yakunida esa pensiya tufayli «tramplindan sakrash”ni amalga oshiradi. Quyida 1- rasmda kareraning ushbu modeli ko‘rsatilgan.

---

[2] https://en.wikipedia.org/wiki/Career

[3] Arthur, M. B., Hall, D. T., & Lawrence, B. S. (1989). Handbook of Career Theory. Cambridge: Cambridge University Press 2012.


[4] Седых А.Б. Карьерная мобильность личности в контексте современных воззрений на карьеру // Человек.Сообщество.Управление. – 2012. №2, с.-54.

[5] Лотова И. Профессиональная карьера госслужащих: вариативный подход — chelt.ru/2003/10-03/lotova-10-03.html

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-4




1-rasm. «Tramplin» karera modeli.

«Zinapoya» karera modeli kartera yo‘lidagi har bir qadam xodimning ma’lum bir (masalan, 5 yildan ortiq bo‘lmagan) vaqt oralig‘ida ma’lum bir pozitsiyani egallashini ifodalaydi. Dastlab, kasbiy kompetensiyalarining rivojlanishi hisobiga menejer yoki mutaxassis karera zinasidan ko‘tariladi. U katta tajribaga, yuqori malaka va keng dunyoqarashga, zaruriy komppetensiyalarga ega bo‘lgan davrida o‘z faoliyatining yuqori pog‘onasiga ko‘tariladi. Eng yuqori lavozimni egallagandan so‘ng, u favqulotda holatlarda muhim qarorlar qabul qilishni va katta jamoani boshqarishni talab qilmaydigan, kam faollik talab etiladigan ishlarni bajarib, karera zinapoyasidan muntazam ravishda pastga tushib boradi. Ushbu karera modeli quyida keltirilgan.



2-rasm. «Zinapoya» karera modeli.

«Ilon izi» karera modeli korxona menejerlari va mutaxassislar uchun mos keluvchi model hisoblanib, unda har bir xodimni qisqa muddatga (1-2 yil) bir lavozimni egallaydi hamda keyin ikkinchisiga gorizontal harakatlanishini ta’minlaydi. Masalan, usta boshqaruv maktabida o‘qiganidan so‘ng, ketma-ket dispetcher, texnolog va iqtisodchi bo‘lib ishlaydi, keyin esa sex boshlig‘i lavozimiga tayinlanadi. Bu menejerga yuqori lavozimda unga foydali bo‘lgan boshqaruv funksiyalarini chuqurroq o‘rganish imkonini beradi. Menejer korxona direktori bo‘lgunga qadar 6-9 yil davomida direktorning kadrlar, tijorat va iqtisodiyot bo‘yicha o‘rinbosari bo‘lib ishlaydi, faoliyatning muhim yo‘nalishlarini har tomonlama o‘rganadi. Ushbu karera modeli 3-rasmda ko‘rsatilgan.




3-rasm. “Ilon izi” karera modeli

“Ikkilanish” karera modeli ma’lum bir qat’iy yoki o‘zgaruvchan ish davridan so‘ng, menejer yoki mutaxassisni har tomonlama baholashdan (sertifikatsiyadan) o‘tishni o‘z ichiga oladi, uning

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

natijalariga ko‘ra lavozimga ko‘tarilish, boshqa lavozimga o‘tkazish yoki pasaytirish to‘g‘risida qaror qabul qilinadi. Ushbu karera modeli qo‘shma korxonalar va xorijiy firmalar uchun shartnoma asosidagi mehnat shartnomasini qo‘llash uchun tavsiya etilishi mumkin. Mazmunan bu inson individualizmiga yo‘naltirilgan Amerika karera modelidir (4-rasm).




4-rasm. “Ikkilanish” karera modeli

Keltirib o‘tilgan karera modellari asosida karerani rejalashtirish inson resurslarini boshqarish va rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyat kab etadi.

Karera rejalashtirish - bu xodimning hayot yo‘lining turli bosqichlarida standart karera modelini tanlash va uning malakasini oshirish va rivojlantirishda tashkilotning strategik manfaatlari bilan bog‘lashdan iborat.

Karerani rejalashtirishda o‘z hayotiy maqsadlarini rejalashtiradigan xodim, tashkilotdagi kadrlar siyosatidan va istiqbolda paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan bo‘sh ish o‘rinlarini prognoz qila olandigan HR menejeri ishtirok etadi.

Menejment bo‘yicha ingliz tadqiqotchilar M. Vudkok va D. Frensis insonning hayotiy faoliyati bosqichlari nuqtai nazaridan kareraviy rivojlanish bosqichlariga quyidagi shaklda ifodalangan o‘zlarining original yondashuvlarini berishadi[6] (Quyidagi 5-rasm).



5-rasm. Inson hayotida kareraviy rivojlanish bosqichlari

Quyidagi jadvalda korxona rahbari lavozimi uchun tavsiya etiladigan karera yo‘li loyihasi aniq lavozimlar ketma-ketligida keltirilgan.

1-jadval.

[6] Вудкок М., Фрэнсис Д. Освобожденный менеджер: для практикующего менеджера: Перевод. с англ. М.: Дело, 1994. с. 119.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-4

Korxona rahbari lavozimi uchun tavsiya etiladigan karera yo‘li

Lavozim	Yosh	Lavozimni egallash usuli	Kompetensiyalarni oshirish yo‘nalishi
Mutaxassis-stajor	20-25	Tayinlov (stajirovka davri uchun)	Oliy ta’lim muassasasida tahsil olish
Ish boshqaruvchi usta	25-30	Brigada yig‘ilishida saylash	Menejerlar maktabida to‘rt haftalik kurslarda o‘qish
Uchastka boshlig‘i	30-35	Tayinlov	Menejerlar maktabida ikki oylik kurslarda o‘qish
Sex boshlig‘i	35-40	Tayinlov	Menejerlar maktabida ikki oylik kurslarda o‘qish
Korxona direktori o‘rinbosari	40-45	Tanlov asosida almashtirish	Menejment bo‘yicha 2 yillik magistratura dasturida o‘qish
Korxona direktori	45-50	Saylash yoki tayinlov	Biznes yo‘nalishida har yili 2 haftalik malaka oshirish
Korxona direktori o‘rinbosari	50-55	Tayinlov	Menejerlar maktabida 2-4 haftalik kurslarda o‘qish
Bosh mutaxassis	55-60	Tayinlov	Biznes maktabida oylik kurslarda o‘qish
Direktor maslahatchisi	60-65	Tayinlov	Biznes maktabida oylik kurslarda o‘qish

Ushbu jadvaldan ko‘rinib turibdiki, ma’lum bir korxona doirasida direktor - eng yuqori lavozim hisoblanadigan bo‘lsa, unga erishishni maqsad qilgan xodim keltirilgan lavozim pog‘onalaridan bosqichma-bosqich ko‘tarilib borishida tegishli yosh chegarasida bo‘lishi va tavsiya etilgan yo‘nalishlarda o‘z kasbiy kompetensiyalarini uzluksiz ravishda oshirib borishi zarur bo‘ladi.

Davlat xizmatchilarining karerasi murakkab ijtimoiy hodisa va hozirgi zamon boshqaruv amaliyotida faolroq foydalanishni talab qiluvchi kuchli tashkiliy omil hisoblanadi.

Turli xil sotsiologik va ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ma’lum bir karera modeli asosida mansab bog‘onasida ko‘tarilish bilan xodimlar o‘z faoliyatida ko‘proq tashabbus ko‘rsatadilar, ular o‘ziga xos g‘oyalarni yaratishga, nostandart va shu bilan birga mas’uliyatli qarorlar qabul qilishga ko‘proq moyil bo‘ladilar.

Karera maqomlar orasidagi harakat bo‘lganligi sababli, ta’rifiga ko‘ra, uning maqomni o‘zgartirish funksiyasi (ko‘tarilish yoki pasaytirish) aniq. Karera tashkilot faoliyatiga yanada samarali ta’sir ko‘rsatishga

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-4

imkon beradi: tashkilotning boshqaruv ierarxiyasidagi mavqei qanchalik baland bo‘lsa, u shunchalik ko‘p kuchga ega bo‘ladi. Bu boshqaruv ta’siri funksiyasiga mazmunan yaqin bo‘lgan hokimiyatni kengaytirish funksiyasini namoyon qiladi.

Karera nafaqat xodim uchun, balki tashkilot uchun ham muhimdir. Ko‘p jihatdan xodimlarning karera tufayli tashkilotning ichki va tashqi sharoitlarga moslashishi ta’minlanadi.

Ko‘pgina kuzatuvchilarning ta’kidlashicha, iqtisodiy va texnologik o‘zgarishlarning jadal sur’ati tufayli karera avvalgidan ko‘ra kamroq taxmin qilinadi. Bu shuni anglatadiki, karera boshqaruvi shaxsning o‘zi ishlaydigan tashkilot emas, balki uning ma’suliyati, chunki «hayot uchun ish» o‘tmishdagi narsadir. Karera muvaffaqiyatining sub’ektiv mezonlariga ishdan qoniqish, o‘z karerasidan mamnunligi, ish hayotidagi muvozanat, shaxsiy yutuqlar hissi va shaxsiy qadriyatlariga va ma’naviyatiga mos keladigan lavozimni egallash kiradi. Biror kishining o‘z karera muvaffaqiyatini baholashiga, ijtimoiy taqqoslash, masalan, oila a’zolari, mahallasi yoki ish joyidagi hamkasblari tomonidan qilingan ishlar ham ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Biror kishining erishgan karera muvaffaqiyatining miqdori va turiga karera kapitalining bir necha shakllari: ijtimoiy kapital (insonning shaxsiy aloqalari darajasi va chuqurligi), inson kapitali (namoyon bo‘ladigan qobiliyatlar, tajriba va malakalar) va iqtisodiy kapital (pul va boshqa moddiy resurslar) ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Avvalo davlat fuqarolik xizmati tushunchasini to‘liq izohlash maqsadga muvofiq. Mamlakatimizdagi milliy qonunchilik hujjatlariga muvofiq ta’riflaydigan bo‘lsak, davlat fuqarolik xizmati - bu davlat xizmatining bir turi bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining davlat fuqarolik xizmati lavozimlaridagi davlat organlari vakolatlari amalga oshirilishini ta’minlashga doir haq to‘lanadigan kasbiy faoliyatini ifodalaydi.7

Davlat organi esa, davlat fuqarolik xizmati tatbiq qilinadigan davlat organlari va tashkilotlari ro‘yxatiga kiritilgan davlat hokimiyat vakolatlariga ega bo‘lgan tashkiliy jihatdan alohida tuzilma hisoblanadi. Davlat fuqarolik xizmati lavozimi deganda davlat organining vakolatlarini bajarish uchun davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining davlat reestriga kiritilgan lavozimni tushunamiz.

Ma’lumki, aksariyat ilmiy adabiyotlarda keltirilgan talqinlarda “karera” tushunchasi sodda qilib izohlaganda “lavozim pog‘onasida yuqoriga ko‘tarilish”ni anglatadi. Davlat fuqarolik xizmatchilari uchun kareraning ikki turi mavjud - rasmiy va professional.

Davlat xizmatchilarining kasbiy faoliyati, eng avvalo, o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish jarayonidir. Inson resurslarini rivojlantirish muammolarini hal etishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining ulkan imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishning asosiy mezonlaridan biri mansabdor shaxslarning o‘z kasbiy mahoratining yuqoriligidir. Shuni hisobga olish kerakki, ular faoliyatining o‘ziga xos xususiyati: uning natijalarini baholash mezonlarining aniq emasligi, mehnat natijalari va mehnatga haq to‘lash o‘rtasidagi zaif va ko‘pincha bilvosita bog‘liqlik. Shuni ta’kidlash kerakki, davlat xizmatchilarining mehnat natijalari ularning shaxsiy fazilatlari, intilishlari, vijdonliligi va boshqalarga bog‘liqligi juda yuqori[8].

Davlat boshqaruvi tizimida, korxona yoki tashkilotlarda kasbiy va rasmiy yuksalish karerani qisqacha

[7] Ўзбекистон Республикасининг “Давлат фуқаролик хизмати тўғрисида”ги қонунининг 4-модаси. https://lex.uz/docs/6145972

[8] Молл Е.Г. Формирование резерва управленческих кадров // Совершенствование организации и управления строительством. – Л.ЛИСИ. – 1982. – С. 155.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-4

ifodalaydi. Shuningdek, davlat fuqarolik xizmatida karera - bu tanlangan faoliyat sohasida shaxsning o‘zini o‘zi ifoda etishining barqaror shakli hisoblanadi. Davlat fuqarolik xizmatchilarining karerasi ular amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ma’lum bir lavozimni egallab, rasmiy munosabatlarni o‘rnatganlarida amalga oshiriladi.

Davlat fuqarolik xizmatida bugungi kunning muhim muammolaridan biri - bu inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish bo‘linmalari tomonidan fuqarolik davlat xizmatchilarini ma’lum bir karera modeli asosida lavozim pog‘onalarida o‘sib borishini tashkil etish va boshqarishga etarlicha e’tibor bermasligidir. Albatta, bu holatning yuzaga kelishida sohada uslubiyotning to‘liq ishlab chiqilmaganligi, ma’yoriy-huquqiy bazaning to‘liq shakllanamaganligi va tashkiliy chora-tadbirlarning to‘laqonli amalga oshirilmaganligi ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan.

Karera boshqarilishi kerak bo‘lgan jarayon, ya’ni, rejalashtirish, tartibga solish, monitoring qilish, baholash va boshqa ta’sir mexanizmlari bilan bog‘liqdir. Umuman olganda, boshqa har qanday ijtimoiy jarayon kabi, karerani muvaffaqiyatli boshqarish uchun hech bo‘lmaganda ushbu jarayonning holati va tendensiyalarini bilish talab etiladi.

Inson resurslarining samaradorligi personal sarflagan shaxsiy mehnat natijalari, u ishlayotgan korxona yoki bo‘linma xodimlari mehnati natijalarining mos kelishi o‘lchovidir. Bunda xodimga qo‘yilgan kunlik vazifalar albatta bajarilishi lozim. Korxona yoki bo‘linma tomonidan kunlik berilgan vazifalar hal etilmadimi, demak bu o‘z navbatida quyidagi salbiy oqibatlarga: ishda shoshilishga, kech qolib ishlashga, charchashga, mehnatning kam asoslanishiga, ishdagi rejasizlikka olib keladi.[9]

Hozirgi vaqtda davlat organlarida karera jarayoniga ta’sir ko‘rsatadigan bir qator salbiy omillar mavjud bo‘lib, ularning asosiylari davlat xizmatchilarining malakasining etarli emasligi, jamoaviy muhit hamda ish beruvchi sifatida aksariyat davlat organlarining hususiy sektordagi korxona va tashkilotlar bilan raqobatbardosh bo‘la olmayotganligidir.

Tashkilotga o‘z xodimining qadr-qimmatini oshirishga imkon beradigan samarali **“karera modeli”**ni joriy etish va boshqarish tizimi yaratilgandagina xodim davlat organida o‘z karera muvaffaqiyatli qurishi mumkin bo‘ladi.

Ishbilarmonlik karerasini boshqarish - bu inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish bo‘linmalari tomonidan tashkilotning strategik maqsad va vazifalar, shu bilan birgalikda xodimlarning imkoniyatlari va ehtiyojlari, qobiliyatlari va moyilliklaridan kelib chiqib, ularning kareraviy o‘sishini rejalashtirish hamda tashkillashtirish, rag‘batlantirish va monitoring qilish bo‘yicha amalga oshiriladigan tadbirlar majmuidir. Bu albatta, tashkilotning maqsadlari, ehtiyojlari, imkoniyatlari va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari hisobga olingan holda amalga oshiriladi[10].

Davlat tashkilotlarida xodimlar bilan ishlashda tizimlilik, izchillik, strategik qarashlar va kareraviy istiqbolni to‘g‘ri rejalashtirishning etarli darajada tashkil etilmaganligi mavjud bo‘lib, bu holatlar iqtidorli mutaxassislarning tashkilotdan ketishiga olib keladi. Bularning barchasi hozirgi vaqtda ushbu tuzilmalarning kadrlar siyosatida jiddiy o‘zgarishlar talab qilinayotganidan dalolat beradi. Bu esa davlat tashkilotlarida inson resurslaridan foydalanish va ularni rivojlantirish bo‘yicha puxta o‘ylangan strategiyani ishlab chiqish, “karera modeli”ni samarali qo‘llashga qaratilgan ko‘plab

[9] Ergashev T.E. SOCIO-PHILOSOPHICAL FEATURES OF HUMAN RESOURCE MANAGEMENT // GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ) ISSN (E): 2347-6915 Vol. 12, Issue 01, January (2024)

[10] Бахарев В. В., Надеев Г. А. Служебная карьера в восприятии и оценке государственных служащих региона // Известия ВУЗов. Общественные науки. – 2013. - № 2 (26). - С.72.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

ishlarni amalga oshirish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

Hozirgi vaqtda davlat xizmatchilarining karerasini boshqarishda yangicha yondashuvlar zarur: davlat kadrlari siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida davlat xizmatchilarining kasbiy mahoratini oshirish va karera ko‘tarilishini belgilash; karera va kasbiy rivojlanish natijalari va umuman mehnat o‘rtasidagi munosabat; xodimlarning karerasini rejalashtirish va boshqarishda davlat xizmatchilarining motivatsion va qadriyatiyatlariga ko‘ra munosabatlarini hisobga olish va boshqalar. Kasbiy tadqiqotlar davomida ilmiy bilimlarning turli sohalarida to‘plangan nazariy va uslubiy tajribani o‘rganish ushbu tajribani umumlashtirish va kasbiy faoliyat samaradorligi va xodimlarni boshqarish samaradorligi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni tan olish darajasida imkon berdi. tashkilot, zamonaviy tashkilotning ichki samaradorligi va tashkilotning ijtimoiy mas’uliyat darajasining muhim ko‘rsatkichi sifatida karera o‘sishi jarayonini aniqlash.

Kareraviy rivojlanishning ijtimoiy mohiyatini tushunishda ichki va tashqi tomondan qarash maqsadga muvofiq: bir tomondan, kareraviy rivojlanishga **“ichkaridan”**, insonning o‘zidan, uning qadriyatlari va maqsadlaridan tortib, u o‘z hayot yo‘lini qanday qurishigacha; boshqa tomondan, kareraviy rivojlanishga **“tashqaridan”** qarash, mansab zinapoyasining bugungi pog‘onasidan kelajakda egallashni rejalashtirgan zinapoyaga tomon maqsadli harakatini ifodalaydi.

“Tashqaridan” kareraviy rivojlanish - bu tashkilot ichidagi shaxsning kasbiy va ish o‘rni uchun aniq istiqbolni belgilash deb izohlanadi. «Ichkaridan» kareraviy rivojlanish xodimning tashkilot ichidagi harakati sifatida emas, balki uning qadriyatlariga mos keladigan kasbda yo‘nalishni ongli ravishda tanlash va ko‘tarilish, shuningdek, insonning o‘z “men-konsepsiyasi” ni amalga oshirish jarayoni sifatida izohlanadi.

Tashkiliy ierarxiyadagi pastdan yuqori lavozimlarga chiziqli ketma-ketlik sifatida qaraladigan an’anaviy “karera modeli» rasmiy ko‘tarilishning aniq belgilangan, qat’iy bosqichlarining bashorat qilinadigan qatorini o‘z ichiga oladi, ular kasbiy o‘sishning rivojlanishini aks ettirmaydi. Davlat fuqarolik xizmatining ierarxik tizimida xodimlar turli sabablarga ko‘ra yuzaga keladigan bo‘sh ish o‘rinlarini egallash uchun rotatsiyalar tufayli pastdan yuqoriga va gorizontal faoliyatning boshqa sohalariga o‘tadilar.

Davlat xizmatchisining ma’lum bir “karera modeli” asosida rivojlanishi uzoq jarayon bo‘lib, u bir qancha davrlarni o‘z ichiga olishi mumkin:

- uzluksiz ta’lim tizimida malaka oshirish (qayta tayyorlash, stajirovka);
- rahbarlik lavozimlariga ko‘tarilish uchun kadrlar zaxirasiga kiritish;
- yuqori lavozimga tayinlash;
- o‘z bo‘limida davlat xizmatchilarining rotatsiyasi.

Davlat fuqarolik xizmatchilarining “karera modeli” asosida o‘sishi - bu davlat fuqarolik xizmati tizimida bir lavozimdan ikkinchisiga o‘tish jarayoni bo‘lib, kasbiy o‘sish va karerani rivojlantirish strategiyasini kelgusida amalga oshirish to‘g‘risida g‘oyalarni shakllantirish bilan birga keladi.

Davlat fuqarolik xizmatida “karera modeli”ning shakllanishiga ko‘plab omillar ta’sir ko‘rsatadi va hozir ham ta’sir qilmoqda. Bular: tarixiy jarayonlarning borishi, milliy mentalitet, jamiyatdagi odob-axloq tamoyillari, milliy an’analar, me’yorlar va boshqalar. Ular ko‘p jihatdan davlat xizmatchilarining kasbiy faoliyatida karera modeliining rivojlanish xususiyatlarini, uning mohiyatini belgilaydi. Bu davlat fuqarolik xizmati tizimida kadrlar karerasini rivojlantirish uchun yaratilgan zarur va etarli shart-sharoitlarning mavjudligi bilan tavsiflanadi. Buni quyidagi komponentlarga ajratish maqsadga muvofiq:

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

a) rasmiy komponentlar (lavozimlar ierarxiyasi, xizmat muddati, xodimning vakolat va majburiyatlari chegaralarining aniqligi);

b) norasmiy komponentlar (tashkilotning strategik maqsad va vazifalari bilan xodimning o‘z oldiga qo‘ygan kareraviy rivojlanish maqsadlari o‘zaro mos kelishi, xodimning qobiliyatlari).

Karera strategiyasi, o‘z navbatida, kareraviy rivojlanishning mumkin bo‘lgan traektoriyasini bashorat qilishdir. Fikrimizcha, “karera modeli” asosida karera startegiyasini ishlab chiqishda uning muhim tarkibiy qismlari quyidagilardir: lavozimda ko‘tarilishdagi maqsadlar; kareraviy o‘sish motivlari; resurslar (tashqi va ichki); lavozimda ko‘tarilishni ta’minlovchi mexanizmlar.

Davlat fuqarolik xizmatchilarining kasbiy karerasini muvaffaqiyatli boshqarishdan davlat ham, jamiyat ham manfaatdor, chunki bu yondashuv birinchi navbatda ijtimoiy keskinlikning ko‘p turlarini yengillashtiradi.

Demak, kareraviy rejalashtirishga asoslangan xizmat faoliyatida eng qobiliyatli shaxslargina egallab turgan lavozimidan keyingi mansab pillapoyalariga ko‘tarilib borishiga imkoniyat yaratiladi. Bu esa, davlat kadrlar siyosati olib borilishida to‘g‘ri seleksiyani yo‘lga qo‘yib, inson, jamiyat va davlat munosabatlarida ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Bizning fikrimizcha, davlat fuqarolik xizmati sohasida milliy “karera modeli”ni ishlab chiqish va joriy etishning quyidagi zaruriyatlarini keltirish maqsadga muvofiq:

- davlat organlari hamda oliy ta’lim muassasalari (OTM) o‘rtasida mutaxassislarni tayyorlash bo‘yicha o‘zaro hamkorlik tizimli yo‘lga qo‘yish, OTM talabalari davlat fuqarolik xizmatida (kareraviy o‘sishda) zarur bo‘ladigan bilim va ko‘nikmalar to‘g‘risida aniq ma’lumotlarga ega bo‘lishini ta’minlash zarurligi;
- davlat fuqarolik xizmatchisining lavozimda ko‘tarilishi uchun kareraviy o‘sish tizimini ishlab chiqishga ehtiyojning mavjudligi;
- davlat fuqarolik xizmatchisining kompetensiyasini baholash hamda kelgusidagi kompetensiyaviy rivojlanish yo‘lini belgilash tizimini ishlab chiqishning zarurligi;
- bir vaqtning o‘zida barcha davlat fuqarolik xizmatchilarining kompetensiyaviy rivojlanishga oid faoliyatini monitoring qilish imkoniyatini yaratishning dolzarbligi;

Davlat fuqarolik xizmatida milliy “karera modeli”ni ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etishda loyiha boshqaruvini qo‘llash hal qiluvchi ahamiyatga ega hisoblanadi.

Bizning hulosalarimizga ko‘ra, davlat fuqarolik xizmatida “karera modeli”ni joriy etishda xodimlar kasbiy kompetensiyalarini adolatli baholashga, ularni tizimli ravishda uzluksiz rivojlantirishga hamda faoliyat samaradorligini baholash va rag‘batlantirishning adolatli va shaffof mexanizmlarini qo‘llashga alohida ahamiyat berish zarur. Bunda puxta ishlab chiqilgan uslubiyot asosida har bir davlat organi va tashkilotida zaruriy tashkiliy chora-tadbirlar ko‘rilgandagina davlat fuqarolik xizmatchilari o‘zlarining kompetensiyaviy rivojlanishi va lavozim pog‘onalarida ko‘tarilishini muvaffaqiyatli amalga oshirishlari mumkin bo‘ladi.

Milliy “karera modeli”ni joriy etishda quyidagi tashkiliy-metodologik chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- vazirlik va idoralarning respublika, hududiy va tuman (shahar) dajradasidagi barcha davlat fuqarolik xizmati lavozimlari uchun malaka talablarini markazlashgan holda yagona namunaviy shaklda ishlab chiqish hamda ularni yagona hujjat asosida vazirlik va idoralar rahbarlari tomonidan tasdiqlanishini ta’minlash;

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

- barcha davlat fuqarolik xizmati lavozimlari uchun malaka talablarini yagona elektron modulda shakllantirish hamda undan samarali foydalanish Agentlik tomonidan muvofiqlashtirib borilishini yo‘lga qo‘yish;
- davlat fuqarolik xizmatchilarining kasbiy kompetensiyalari adolatli baholash me’zonlariga asoslangan uslubiyotni yaratish va uni joriy etish;
- xizmat faoliyati va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish yo‘lida erishgan natijalari va qobiliyatlarini inobatga olgan holda lavozim pog‘onasida o‘sishni ta’minlovchi me’zonlarni ishlab chiqish, amaliyotga joriy etish va ularga qat’iy amal qilinishini ta’minlash;
- davlat fuqarolik xizmatchilarining kareraviy o‘sishini boshqarish tizimini joriy etishda inson resurslarini boshqarish va rivojlantirishning zamonaviy texnologiyalarini qo‘llash bilan birgalikda milliy mentalitetimizga xos bo‘lgan jihatlarni ham inobatga olishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Arthur, M. B., Hall, D. T., & Lawrence, B. S. (1989). Handbook of Career Theory. Cambridge: Cambridge University Press 2012.

2. Седых А.Б. Карерная мобилност личности в контексте современных воззрений на карeру // Человек.Сообщество.Управление. – 2012. №2, с.-54.

3. Лотова И. Профессионалная карера госслужащих: вариативный подход — челт.ру/2003/10-03/лотова-10-03.ҳтмл

4. Вудкок М., Френсис Д. Освобожденный менеджер: для практикующего менеджера: Перевод. с англ. М.: Дело, 1994. с. 119.

5. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi qonunining 4-modasi. https://lex.uz/docs/6145972

6. Молл Е.Г. Формирование резерва управленческих кадров // Совершенствование организатсии и управления строителством. – Л.ЛИСИ. – 1982. – С. 155.

7. Ergashev T.E. SOCIO-PHILOSOPHICAL FEATURES OF HUMAN RESOURCE MANAGEMENT // GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ) ISSN (E): 2347-6915 Vol. 12, Issue 01, January (2024)

8. Бахарев В. В., Надеев Г. А. Служебная карера в восприятии и отсенке государственных служащих региона // Известия ВУЗов. Общественные науки. – 2013. - № 2 (26). - С.72.

9. Luftim Cania, (2014), “The evolution of human resource management: past, present and future”, The Macrotheme Review 3(9), 2014. pp 73-83.

10. https://en.wikipedia.org/wiki/Career